



QUYONLARNI OZIQLANTIRISH

Olim Mardanovich Mansurov, Botir Sayfiddinovich Uraqov
Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi kichik ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Kaliforniya va boshqa zotga mansub quyonlarning konsentrlangan ozuqalarga dukkakli va boshqali ekinlar doni, moyli o'simliklar urug'lari, kombikormlar va dukkakli, shirali va dag'al ozuqalarning qayta ishlash natijasida olingan oziqalar kiradi. Ushbu ozuqalar energiya, oqsil, minerallarga boy bo'lib, quyonlarni oziqlantirishda qo'llanilib iqtisodiy jixatdan arzon va samarali hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha foyda olishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: sut emizish, o'rtacha, oqsil, yog', uglevodlar, oziqalar, protien, konsentrat oziqa, energiya

Abstract: Concentrated feeds for California and other breeds of rabbits include grain from legumes and spikes, oilseeds, combicorns, and processed foods from legumes, succulents, and roughage. These feeds are rich in energy, protein, and minerals, and they are considered cheap and effective in feeding rabbits, and provide additional benefits to producers.

Kirish

Respublikamizda urchitilayotgan quyonlarning biologik xususiyatlarini va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'rganish natijasida "Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi" tomonidan tajribalarda quyonlarga berilgan ozuqalarning ozuqa iste'molini o'rganildi.

A. Adilova, A. Xolmatov, K.I. Xidirovlarning fikricha, shifokorlarimiz quyon go'shtini parhez mahsulotlar qatoriga kiritadilar. Quyon go'shti konserva qilinganda, dudlanganda ham o'z mazasi va sifatini to'la saqlab qoladi. Shuning uchun xorijiy mamlakatlarda quyon go'shtiga talab katta.

R.I. Ruziev, K.I. Xidirovlarning ma'lumotlariga ko'ra quyonlarning tirik vazn olishi 21 kunlik yoshida nazorat guruhida 257,89 g-ni, tajriba guruhida 275,21 g-ni tashkil etdi. 30 kunlik yoshiga kelib esa 589,5 g-ni, tajriba guruhida 635,27 g-ni tashkil etdi. 45 kunlik yoshiga kelib nazorat guruhi quyonlari 1210 g-ga, tajriba guruhi quyonlari vazni 1308,56 g-ni tashkil etdi.

B.O. Muxtorov, F.S. Allashev, A.X. Xolmatovlarning ma'lumotlariga ko'ra mahalliy quyon zotlariga mansub quyonlar sutining kimyoviy tarkibi o'rganilgan. Quyon sutining kimyoviy tarkibi ilk marotaba o'rganilib, mahalliy quyon zotdorligiga mansub quyon zotining o'rtacha quyon sutining quruq moddasi 28,59, oqsili 13,72, yog' miqdori 10,93, uglevodlari 1,65%-ni tashkil etgan.

R.I. Ruziev, K.I. Xidirovlarning ma'lumotlariga ko'ra mahalliy quyonlarning sut maxsuldorligi Yevropadan olib kelingan quyon zotlariga nisbatan ancha past bo'lganligini ko'rsatadi. Mahalliy quyonlarning o'rtacha sut maxsuldorligi 21 kunga qadar 2875,4 g-ni tashkil qilib, mahalliy ona quyonlarning yuqori va quyi limit sut maxsuldorligi 3162,5-2587,8 g-ni tashkil etdi.

Sut emizish davrining 35 kunlik davriga qadar o'rtacha sut maxsuldorligi 3337,8-4154,3 g-ni tashkil etdi. Shu ko'rsatkichlarni o'rganish natijasida bo'lg'usi ona quyonlarning seleksiya guruhlariga erta tanlash orqali maxsuldorligi yuqori ona quyonlar podaga tanlanadi, ishlab chiqaruvchilarga yuqori maxsuldorlikga ega bo'lgan urg'ochi quyonlar etkazib beriladi.

Tadqiqotnig maqsadi

Kaliforniya zotiga mansub quyonlarning konsentrlangan ozuqalarga dukkakli va boshqali ekinlar doni, moyli o'simliklar urug'lari, kombikormlar va dag'al va shirali ozuqalarni qayta ishlash natijasida olingan maxsulotlar kiradi.

Quyunchilikda sanoat asosida boqilganda qo'llaniladigan ozuqalarning tasnifi keltirilgan konsentrlangan ozuqa. Konsentrlangan ozuqalarga dukkakli va boshqali ekinlar doni, moyli o'simliklar urug'lari, kombikormlar va texnik o'simlik chiqindilari kiradi.

Suli doni- quyonlar ratsionida kiritiladigan asosiy ozuqa hisoblanadi. Suli tarkibida 8,5% protein, 70%- kraxmal, 4,8% -yog' va 10,5%- kletchatka mavjud. Suli donini quyonlarga butun, yorma yoki un holda beriladi.

Makkajo'xori doni- energiyaga boy konsentrat ozuqa. Uning to'yimlilik suli doniga nisbatan 1,36 baravar ko'p. Makkajo'xori doni quyonlar organizmida oqsil kam xazm bo'ladi. Makkajo'xori doni yormasi quyonlarga boshqa konsentratlar bilan aralashma xolda beriladi. Ratsion tarkibida konsentrlangan ozuqadagi makkajo'xori ulushi 50-75%-dan oshmasligi kerak.

Arpa doni- quyonlar uchun yaxshi donli ozuqa hisoblanib, to'yimlilik ko'rsatkichlari bo'yicha u suli donidan yuqori turadi, ammo quyonlarni arpa doni bilan boqish ehtimoli kamroq, faqat hayvonlarni bo'rdoqilash davrida foydalaniladi. Arpa donini maydalangan yoki butun xolda berish mumkin.

Bug'doy kepagida 13-17% protein, 3-5% yog', 52-68%- azotsiz ekstraktiv moddalar (AEM), 5-10% kletchatka mavjud. Ular, ayniqsa, fosfarga boy. Quyonlarga biroz namlab yashil, shirali va dag'al ozuqalar bilan aralashtirilgan holda beriladi.

So'ngi yillarda quyonlar uchun turli xil assortimentdagi *kombikormlar* ishlab chiqariladi. Ularda etarlicha protein, minerallar va vitamin qo'shimchalari mavjud. Quyonlarni parvarishlashda to'laqiymatli va kam to'yimlikga ega bo'lgan kombikormlar ishlatiladi. Donli oziqalar maydalangan, granula shaklda bo'ladi. To'laqiymatli granula shaklidagi kombikormda hayvonlarning fiziologik xususiyatlariga va ularning mahsuldorligiga qarab quyonlarning oziqlanishini har tomonlama va to'liq muvozanatlash imkonini beradi. Oziqa ratsionida energiya, oqsil, kletchatka, mineral tarkibi, vitaminlar nisbati muvozanatlashtiriladi. Terapevtik va profilaktika maqsadida turli xil dorivor moddalar va antibiotiklar granular tarkibiga kiritiladi.

Quyonlar uchun bir nechta kombikorm retseptlari mavjud (1 jadval).

Afsuski, sanoat quyonlar uchun etarlicha to'liq ozuqa ishlab chiqarmaydi. Shuning uchun havaskor quyon yetishtiruvchilar ko'pincha yosh qoramol uchun tayyorlangan hayvonlar ozuqasidan foydalanadilar.



Parrandachilik uchun tavsiya etilgan kombikormlar quyonlar uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Kunjara va shrotlar texnik sanoatning chiqindilaridir. Ular quyonlarga maydalangan yoki bug'langan shaklda beriladi. Odatda boshqa konsentrlangan (don) ozuqalari bilan aralashma xolda ishlatiladi.

Kunjara (30-40%) yuqori oqsil miqdori bilan ajralib turadi, ular tarkibida 8-0% yog', V vitaminlari, shuningdek fosfor va temir mavjud. Quyonlar uchun zig'ir, soya, kungaboqar, ishlatiladi. Paxta kunjarasi tarkibidagi zaxarli modda-gossipol- mavjudligi sababli quyonlar ratsioniga qo'shish tavsiya etilmaydi.

Shrot, kunjara singari, ozuqaga boy (40%) oqsil, (2-3% dan ko'p bo'lmagan) yog' mavjud. Quyonlarni oziqlantirishda asosan zig'ir, kungaboqar va soya shortlaridan foydalaniladi.

Tajribadagi kuyonlarga granulali omuxta yem tayorlab, infraqizil spektrli "119 m markali" ozuqani ekspress analizatorida kimyoviy tarkibi o'rganildi. Ozuqalar tarkibi% hisobida: makkajo'xori -25%, bug'doy kepagi-40%, beda pichani maydalangani -20%, arpa doni 15%-ni tashkil etdi. 1 kg omuxta emning kimyoviy tarkibida quruq modda 862 g, protein-116,37, yog'-15,7 g, kletchatka-219,9 g, AEM-510 g-ni tashkil qilib emning to'yimligi o'rtacha 0,90 EOB tashkil qildi.

Tajriba kuyonlarning ozuqa sarfini o'rganish maqsadida oyning boshida va oyning o'rtasida nazorat oziqlantirish o'rganildi. Tajribadagi quyonlarga 2024-yil Yanvar, Fevral, Mart, Aprel, May, Iyun, Iyul, Avgustdan boshlab ratsion tarkibidagi protein miqdorini oshirish maqsadida hamda qimmat konsentrat miqdorini kamaytirib o'rnini bosuvchi beda pichani bilan boytildi hamda ozuqalarning iste'moli har oyning 1-2,15-16 kunligida tarozida tortish orqali o'rganildi.

Quyonlarning ozuqa iste'moli taxlil qilinganda hayot tarziga va uning fiziologik xolatiga ko'ra o'zgarib borishi aniqlandi.

Tajribadagi quyonlarga tajriba davomida o'rtacha 250 g omuxta oziqa berilib, oziqaning iste'mol qilish foizi 97,27 foizni tashkil qilgan bo'lsa, beda pichani ozuqasi 95,55 foizni tashkil qildi. Yozning issiq kunlari tugashi bilan harorat mo'tadillashib oziqalarning iste'moli oshdi. Bu ko'rsatkich ozuqaning iste'mol darajasi kunlik ozuqaning iste'mol darajasi o'rtacha 2,8%-ga, beda pichani 2,2%-ga ortganligini guvohi bo'ldik.

1-jadval

Tajribadagi quyonlarning o'rtacha oylar davomida ozuqa sarfi, g

	1 boshga ozuqa miqdori, g				Berilgan	Beda pichani		
	Berilgani	Qol-dig'i	iste'mol	Ozuqa istemol %		Qol-diq	iste'-mol, g	Ozuka iste'mol %
O'rtacha	250	6,63	243,4	97,27	200	8,93	190,72	95,55
Cv%		9,26	0,24	0,26		7,49	0,46	0,36
Sx		2,22	2,12	0,93		2,42	3,21	1,24

Xulosalar

Quyunchilik tarmog'ida quyonlarni ozuqa ratsioniga qo'shilishi kerak bo'lgan oziqalarning to'yimliliigi va tarkibi keltirilgan.

Quyonlar uchun olingan 1 kg omuxta yemning kimyoviy tarkibida quruq modda 862 g, protein 116,37, yog' 15,7 g, kletchatka 219,9 g, AEM 510 Mj tashkil qilib, emning to'yimliliigi o'rtacha 0,90 EOB tashkil qildi. Mart-aprel oyidagi ozuqa sarfini o'rganishda quyonlarning bo'g'ozlik

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalashnikov A.P, Fisinin V.I., Щеглов V.V., Kleymenov N.I. va boshqalar. Qishloq xo'jalik mollari ratsionlari va me'yorlari. M., 2003.- 456 b.

2. Ruziev R.I., Yuldashev D.K., Xidirov K.I. va boshqalar. Quyonlarni saqlash, oziqlantirish va naslchilik ishlari. Toshkent. "Fan ziyoesi" 2023 y. 150 b.

3. Kalugin Yu.A. Quyonlar organizmida ozuqalar so'rilishi va xazmlanishi Quyunchilik va mo'ynachilik j.- 2009 – №4 – 31-30 b.